

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

YAQUBOV TURSUNBOY BOTIROVICH

**SHO‘RTAN GAZ-KIMYO MAJMUASINING TUPROQ EKOLOGIK
HOLATIGA TA‘SIRI**

11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по географическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on geographical sciences**

Yaqubov Tursunboy Botirovich

Sho‘rtan gaz-kimyó majmuasining tuproq ekologik holatiga ta’siri 3

Якубов Турсунбой Ботирович

Влияние Шуртанского газохимического комплекса на экологическое
состояние почвы 21

Yakubov Tursunboy Botirovich

Effect of Shurtan gas chemical complex on soil ecological condition 41

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

YAQUBOV TURSUNBOY BOTIROVICH

**SHO'RTAN GAZ-KIMYO MAJMUASINING TUPROQ EKOLOGIK
HOLATIGA TA'SIRI**

11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish

**GEOGRAFIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Gr234 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xoliqulov Shodi Turdiqulovich
qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nigmatov Asqar Nigmatullayevich
geografiya fanlari doktori, professor

Mirzamahmudov Odiljon To'xtasinovich
geografiya fanlari doktori (DSc).

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 raqamli ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik Ilmiy kengashning 2024-yil 24 dekabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri Universitet xiyoboni, Bosh bino, faollar zali. Тел.: (+99899) 776-77-25., faks: (0366) 239-19-36 E-mail: ik-geografiya2019@mail.ru Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Geografiya va ekologiya fakulteti.

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№126 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri Universitet xiyoboni, Тел.: (+99899) 776-77-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 12 dekabr kuni tarqatildi.
(2024-yil 5 dekabrda 1-raqamli reyestr bayonnomasi).

S.B.Abbasov

Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik
ilmiy kengash raisi g.f.d, professor

B.A.Meliyev

Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik
ilmiy kengash ilmiy kotibi, g.f.f.d. (PhD),
dotsent

K.M.Boymirzayev

Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, g.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon aholisini tabiiy resurslar bilan ta'minlash maqsadida ekosistemalardan intensiv foydalanilayotganligi tufayli tabiiy muhitda texnogen buzilish, kimyoviy ifloslanish, tuproq degradatsiyasi va boshqa salbiy ekologik jarayonlar kuchaymoqda. Bu muammolarga qarshi kurashishga xalqaro tashkilotlar katta e'tibor bermoqda. Jumladan, BMTning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish bo'yicha dasturida belgilangan 17 ta maqsadlardan biri "quruqlik ekosistemalarini muhofaza qilish va tiklash, ulardan oqilona foydalanish, o'rmonlarni ratsional boshqarish, cho'llanishga qarshi kurashish, yerlarning degradatsiyasini to'xtatish va biologik xilma-xillik yo'qolishining oldini olish" vazifalari yechimiga yo'naltirilgan¹. Mazkur vazifalarning yechimini topishda cho'llanishga qarshi kurashish, yerlarning degradatsiyaga uchrashini oldini olish, ekotizimlarni asrash hamda geotizimlarning ekologik holatini yaxshilash iqlim va yer usti suvlarini landshaftlar o'zgarishiga ta'sirini kompleks tadqiq etish hamda geoekologik baholash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyo bo'yicha yerdan foydalanish zarurati oshgan sayin tuproqning ifloslanishi ham ortib, atrof-muhitni keng ifloslanib borish jarayoni kuzatilmoqda. Bunda tuproq resurslaridan foydalanishni tartibga soluvchi innovatsion texnologik yechimlarni qo'llash, GAT texnologiyalari asosida modellashtirish, matematik-statistik uslublardan foydalanish orqali atrof-muhitni barqarorligini ta'minlashga va baholashga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada suv resurslarini asrab-avaylash, ulardan oqilona va rejali foydalanish hamda uning sofligini saqlashda zamonaviy yondashuvlarga asoslangan uslublarni keng miqyosda qo'llashga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Respublikamizda mavjud ekologik muammolarni hal etish uchun tabiiy resurs hamda tabiiy sharoitni baholash, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida hududlarning tabiiy resurs salohiyatidan ilmiy asosda foydalanish, yer ularning sho'rlanishi va cho'llanishiga qarshi kurashish, odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta'minlash bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning 79-maqsadi "Aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish" hamda 80-maqsadi "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish"² yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada yer resurslarining asosiy qismi hisoblanadigan qishloq xo'jaligida yerlaridan oqilona foydalanish, uning ifloslanishini oldini olish eng dolzarb masala hisoblanadi.

¹ Повестки дня в области устойчивого развития на период до 2030 года // Электронная доступ: <http://www.uz/undp/org/content/uzbekistan.ru>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863-son «2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 27-iyundagi 430-son “Yer osti suvlaridan foydalanish sohasidagi faoliyatni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 3-iyundagi 343-son “Atrof-muhitning ifloslanish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli bo‘lgan boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab o‘tilgan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirgi kunda dunyoda olib borilayotgan qator ilmiy tadqiqotlar, asosan, jamiyatimizda ro‘y berayotgan atrof-muhit ifloslanishini oldini olish, xususan, biosferaning turli omillar ta‘sirida ifloslanishini o‘rganishga qaratilmoqda. Sanoat korxonalarining eng muhim tarmoqlaridan bo‘lgan gazni qayta ishlash korxonalari chiqindilarining tarkibi va atrof-muhitga ta‘sirini o‘rganish bo‘yicha MDH va xorijiy mamlakatlar olimlari (A.I.Bulatov va boshqalar (1997), A.I.Gritsenko (1997), I.M.Gabbasova va boshqalar (1997, 2002), V.V.Ambarsumyan, V.B.Nosov (1999), A.A.Revzon (2000), N.M.Bajin (2000), Y.I.Krapinskiy (2004), A.M. Antonenko va boshqalar, (2006), Y.N.Yeldishev (2007), M.S.Martyusheva (2008), O.V.Boyko va boshqalar (2016), X.A.Djuvelikyan (2017), A.D.Boltunova (2017)) tomonidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan.

Respublikamiz sharoitida esa sanoat korxonalarining atrof-muhitga ta‘siri M.X.Hakimova, X.T. Riskiyeva (2003, 2005), Sh.T.Xoliqulov, I.N.Bobobekov (2004; 2018), Bobobekov (2005; 2006; 2019), X.N.Karimov (2014), B.Sh.Akramov (2016), T.U.Rahimov (2016; 2017), M.X.Diyorova (2017), Sh.T.Xoliqulov (2018), K.E. Roziqova, L.Tursunov, R.Bobonorov va boshqalar (2020) va boshqa bir qator tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan.

Lekin respublikamizda Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi chiqindilarining atrof-muhitga, jumladan tuproq va o‘simliklarga salbiy ta‘sirini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan.

Shuning uchun ham ushbu tadqiqotning ob‘yekti qilib Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi tanlandi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat universiteti ilmiy-tadqiqot rejasining «№SK-05. Mahalliy xom-ashyolarni kimyoviy qayta ishlash, ulardan yangi materiallar sintez qilish, nanomateriallar texnologiyasi va sanoat ekologiyasini tadqiq etish» loyihasi doirasida (2019-2022 yy.) bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Shoʻrtan gaz-kimyoy majmuasi faoliyati natijasida atrof-muhitga chiqarilgan chiqindilarning va oʻsimlik qoplami (och tusli boʻz) tuproq ekologik holatiga taʼsirini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Shoʻrtan gaz-kimyoy majmuasi tomonidan atmosferaga chiqarilgan zaharli moddalar miqdorini tahlil qilish;

majmuasi chiqindilari taʼsirida suvlarning ifloslanishi, tuproqlardagi olingugurt hamda yalpi va harakatchan ogʻir metallar miqdorining oʻzgarishini tahlil qilish;

majmuasi chiqindilarining tuproqdagi mikrobiologik jarayonlarga jumladan aktinomisetlar, zamburugʻlar va bakterialar miqdoriga taʼsirini tahlil qilish;

majmuasi atrofidagi tuproq unumdorligini tahlil qilish va ogʻir metallar miqdorini kamaytirish choralarini ishlab chiqish.

Tadqiqot obekti sifatida Shoʻrtan gaz-kimyoy majmuasi va uning atrofida tarqalgan och tusli boʻz tuproqlar hamda oʻsimliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmeti Shoʻrtan gaz-kimyoy majmuasi chiqindilarining atmosferaga, yer usti va yer osti suvlariga, tuproq xossalariga hamda oʻsimliklar qoplamiga salbiy taʼsiri birinchilar qatori aniqlandi va ayrim tabiiy geografik komponentlariga salbiy taʼsirini oldini olish choralar ilmiy asoslandi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotni bajarishda ekologik eksperimental, ekologik (floristik), statistik (Excel), dala va laboratoriya sharoitida olib borilgan tadqiqotlar, TAITI, OʻzPITI hamda Bogʻdorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti ishlab chiqqan uslub hamda tavsiyalar asosida olib borildi. Olingan maʼlumotlar tizimli-tahlil, matematik, statistik, tayanch eksperimental tadqiqot, korrelyasion tahlil, olingan maʼlumotlarni grafiklar va jadvallarda tizimlash kabi bir qator usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. quyidagilardan iborat:

respublikamiz sharoitida birinchi marta gazni qayta ishlash sanoati chiqindilarining atrof-muhitga jumladan, tuproqning ekologik holati, oʻsimliklarning oʻsishi rivojlanishiga taʼsiri aniqlangan;

majmuasi faoliyati natijasida chiqarilgan chiqindilar ushbu hududda tarqalgan och tusli boʻz tuproqlar tarkibidagi gumus va oʻsimliklar uchun zarur boʻlgan ozuqa elementlar miqdorini kamaytirishi asoslangan;

chiqindilar taʼsirida tuproq mikrobiologik faolligiga jumladan bakteriyalar, aktinomisetlar va zamburugʻlar populyatsiyasiga taʼsiri hamda makkajoʻxori oʻsimligining oʻsib-rivojlanishi, hosildorligi va hosil sifatining oʻzgarishi baholangan;

majmuasi atrofidagi tuproq unumdorligini oshirish va ogʻir metallar miqdorini kamaytirish choralarini boʻyicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. quyidagilardan iborat:

Shoʻrtan gaz-kimyoy majmuasi faoliyati natijasida chiqarilgan chiqindilarning hududda barqaror ekologik muhitni shakllantirishga jumladan atmosfera, suv va tuproq ekologik holatiga, oʻsimliklarning oʻsib rivojlanishiga va hosildorligiga salbiy taʼsiri qilishi aniqlangan;

Shoʻrtan gaz-kimyo majmuasi atrofining 1:25000 mashtabli “Oltinugurtli birikmalar va ogʻir metallar bilan ifloslanish karta sxemasi” yaratilgan;

kompleksdan atmosferaga chiqariladigan zararli gazlarni atrofga tarqalishini “Xalqa” usulini qoʻllash orqali 1:25000 masshtabli karta sxemasi yaratilgan;

tabiiy landshaftlarni saqlash, tuproq ifloslanishini oldini olish va chiqindisiz ishlab chiqarishni joriy qilish boʻyicha takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Oʻtkazilgan dala va laboratoriya tajribalarining uslubiy jihatdan toʻgʻriligi maxsus tashkil etilgan aprotatsiya komissiyasi tomonidan ijobiy baholanganligi, dissertatsiya ishida qoʻllanilgan uslublarning tadqiqotlarni bajarishga mosligi, olingan natijalarning respublika va xorijiy olimlar tajribalari bilan taqqoslanganligi, maʼlumotlarning ishonchliligi, tadqiqotlar yoʻnalishi Davlat buyurtmalari boʻyicha ilmiy-amaliy loyihalarning tarkibiy qismi ekanligi, tadqiqotlar natijalarining respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlarda muhokama qilinganligi, shuningdek tajribalar natijalarining Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan eʼtirof etilgan nufuzli xorijiy ilmiy jurnallar va respublika davriy-ilmiy nashrlarida ilmiy maqolalar va tezislar holda chop etilganligi, ishlab chiqarishga tegishli tavsiyalar yaratilib joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati Shoʻrtan gaz-kimyo majmuasi chiqindilari taʼsirida atmosfera, suv va tuproqlarning turli zararli birikmalar bilan ifloslanishi, tuproq xossa va xususiyatlarining yomonlashuvi hamda mikrobiologik faolligining pasayishi ilmiy va nazariy jihatdan asoslab berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati oʻtkazilgan dala va laboratoriya tahlillari natijasida turli xil oltinugurtli birikmalar va ogʻir metallarning atmosfera, suv va tuproq xossa, xususiyatlariga salbiy taʼsiri aniqlangan. Ekotizimdagi och tusli boʻz tuproqlarning oltinugurtli zararli birikmalar hamda mis, rux, qoʻrgʻoshin, nikel singari ogʻir metallar bilan ifloslanish xaritasi yaratilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Shoʻrtan gaz-kimyo majmuasidan ajralib chiqadigan zararli moddalarning atrof-muhitga, tuproq va oʻsimliklarning ekologik holatiga taʼsiri boʻyicha olingan natijalar asosida:

gazni qayta ishlash sanoati chiqindilarining atrof-muhitga jumladan, tuproqning ekologik holati, oʻsimliklarning oʻsib rivojlanishiga taʼsiri boʻyicha baholashlar va majmua faoliyati natijasida chiqarilgan chiqindilar shu hududda tarqalgan och tusli boʻz tuproqlar tarkibidagi gumus va oʻsimliklar uchun zarur boʻlgan ozuqa elementlar miqdorini kamaytirishini asoslovchi dalillar Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muxofaza qilish davlat qoʻmitasi amaliyotiga joriy qilingan (Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muxofaza qilish davlat qoʻmitasining 2022-yil 8-fevraldagi 03-02/8-414 sonli maʼlumotnomasi). Natijada, gazni qayta ishlash sanoat korxonalarining tuproqqa taʼsir doirasi va manbalar inventarizatsiya jarayonlarining sifatini oshishiga xizmat qilgan;

chiqindilar taʼsirida tuproq mikrobiologik faolligiga jumladan bakteriyalar, aktinomitsetlar va zamburugʻlar populyatsiyasiga taʼsiri hamda makkajoʻxori oʻsimligining oʻsib-rivojlanishi, hosildorligi va hosil sifatining oʻzgarishining

tahlillari O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muxofaza qilish davlat qo‘mitasi amaliyotida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muxofaza qilish davlat qo‘mitasining 2022-yil 8-fevraldagi 03-02/8-414 sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, chiqindilar ta‘sirida tuproq mikrobiologik faolligiga jumladan bakteriyalar, aktinomitsetlar va zamburug‘lar faoliyatiga hamda mevali daraxtlarda sodir bo‘ladigan anotomik-fiziologik o‘zgarishlar va makkajo‘xori o‘simligining o‘sib-rivojlanishi, hosildorligi va hosil sifatining o‘zgarishi tahlil qilinib, og‘ir metallar miqdorini kamaytirish choralari ishlab chiqish imkonini bergan;

majmua atrofidagi tuproq unumdorligini oshirish va og‘ir metallar miqdorini kamaytirish choralari bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muxofaza qilish davlat qo‘mitasi amaliyotida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muxofaza qilish davlat qo‘mitasining 2022-yil 8-fevraldagi 03-02/8-414 sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, zararlantiruvchi moddalarni atrof-muhitga chiqarib tashlashning me‘yorida amal qilinishi tahlil qilingan, majmuaning atrof-muhitga ta‘sirini kamaytirish bo‘yicha tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta halqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 18 ta ilmiy ish, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan 5 tasi respublika va 2 tasi Scopus jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 120 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriati ilmiy asoslangan. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obekt va predmetlari tavsiflangan. Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi yoritilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va Dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Sanoat korxonalarining atrof-muhitga ta‘sirini o‘rganishning ilmiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida bir qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli sanoat korxonalari, jumladan gaz sanoati korxonalari chiqindilarining atrof-muhitga salbiy ta‘siri bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari qisqacha bayon etilgan. O‘rganilgan adabiyotlar ma‘lumotlari asosida tegishli xulosalarga kelingan. Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi chiqindilarining ushbu hududda tarqalgan tuproq va o‘simliklarga salbiy ta‘siri

deyarli o'rganilmaganligi va shuning uchun tanlangan mavzu hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri ekanligi ta'kidlab o'tilgan.


Tabiiy gazni qayta ishlash korxonasining ish faoliyati natijasida atrof-muhitga turli xil chiqindilar chiqarilishi keltirilgan adabiyotlar ma'lumotlaridan aniqlanganligi tufayli, Qarshi cho'li tabiiy iqlim sharoiti misolida qanday ta'sir qilishini ilmiy asosda ko'rib chiqish uchun majmua tarixi va uning tabiiy geografik sharoitini o'rganib chiqdik.

Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi 2001-yilda Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani hududida tashkil etilgan. Majmuaning ishlab chiqarish quvvati yiliga 3,5 mlrd. m³ tabiiy gazni qayta ishlab, 125 ming tonna poliyetilen granulari, 100 ming tonna siqilgan gaz, 100 ming tonna gaz kondensati, 2,5 ming tonna oltinugurt granulari, 3,2 mlrd. m³ tozalangan gaz ishlab chiqarish imkonini beradi. Qisqacha chiqindi turi va miqdori haqida aytib, keyin buni ilmiy o'rganish zarur degan fikrga keldik.

Tadqiqot o'tkazilgan hudud iqlimi kontinental, o'rtacha yillik havo harorati 16,4^o bo'lib, eng sovuq oy harorati -6^o ga to'g'ri keladi. Yanvar oyining o'rtacha temperaturasi 1,9^o. Yoz oylarining o'rtacha havo harorati +27^oC, +30^oC, eng yuqori harorati +43^oC, +45^oC. Eng issiq kunlar iyul-iyul oylariga to'g'ri keladi.

Hudud iqlimiga shamol rejimi o'ziga hos ta'sir ko'rsatadi. Shamol rejimi sinoptik holatlar ta'sirida yuzaga keladi. Shamol rejimiga mahalliy relyefning o'ziga xosligi ta'sir etadi.

1-rasmda Hududning "Shamol guli" chizmasi keltirilgan bo'lib, unga e'tibor qaratadigan bo'lsak, hududda shamolning yo'nalishi va yillik o'rtacha qaytarilishi quyidagicha kechadi (foizda): Sh-14, ShShq-10, Shq-8, JShq- 3, J-3, JG'-6, G'-20, ShG'-36.



1-rasm. Hududning "Shamol guli" chizmasi (%).

Dissertatsiyaning "Sho'rtan gaz-kimyo majmuasidan atrof tabiiy muhitga chiqadigan chiqindilar emissiyasi" deb nomlangan ikkinchi bobida Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi faoliyati natijasida atrof tabiiy muhitga chiqarilgan chiqindilar tavsifi, majmua atrofidagi oqar suvlar tarkibidagi zaharli birikmalar hamda ularning atrof-muhitga ta'siri o'rganilgan.


Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, G'uzor tumani ekotizimi hududida joylashgan Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi ishlab chiqarish jarayoni davomida atrof tabiiy

muhitga turli xildagi kimyoviy moddalarni chiqargan. Majmuadan jami 53 manbadan atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar chiqariladi va bu manbalardan 9 tasida kuzatuv ishlari olib borildi.

Majmua o'z faoliyati natijasida atmosferaga, asosan, azot, uglerod, oltingugurt oksidlari, vodorod sulfid, uglevodorodlar hamda boshqa turli xil kimyoviy birikmalar chiqaradi. Ushbu zaharli birikmalar o'simliklarning o'sib rivojlanishiga o'ziga xos salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Kuzatuv natijalari 2-rasmda keltirilgan. Rasm ma'lumotlariga ko'ra atmosferaga chiqarilayotgan azot va uglerod oksidlari miqdori 2019-yilga nisbatan 2020-yilda kamayganligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni 2019-yilda atmosferaga 106,99 tonna uglerod oksidlari, 202,21 tonna azot ikki oksidi hamda 48,64 tonna azot oksidi chiqarilgan bo'lsa, ularning miqdori 2021-yilda mos ravishda 105,48; 155,12; 39,41 tonnani tashkil etgan.


Atmosferaga chiqarilayotgan uglevodorodlar miqdori 2019-yilda 8,42 tonna bo'lgan bo'lsa, 2020-yilda uning ko'rsatkichi 8,54 tonna bo'ldi. Atrof-muhitga chiqarilgan oltingugurt II oksidi miqdori 2019-yilda 1,67 tonna, 2020-yilda esa 2,41 tonnani tashkil etdi.



2-rasm. Sho'rtan gaz-kimyo majmuasidan atmosferaga chiqariladigan yemissiyalar (ming tonna).

Majmuada faoliyat ko'rsatayotgan turli sexlardan keyingi yillarda atrof-muhitga zararli birikmalarning chiqarilishi 3-rasmda keltirilgan. 3-rasm ma'lumotlariga ko'ra, majmuaning etilen sexi 1-zonasidan atrof-muhitga 2015-yilda 76,15 mg/m³ azot, 0,96 mg/m³ uglerod oksidlari, 2016-yilda esa 66,2 mg/m³ azot, 0,38 mg/m³ uglerod oksidlari chiqarilgan. Keyingi yillarda ushbu zararli birikmalarning atrof-muhitga chiqarilish miqdori mos ravishda: 2017-yilda 79,98; 1,11 mg/m³, 2018-yilda 71, 105; 0,665 mg/m³, 2019-yilda esa 67,05; 3,91 mg/m³ ni tashkil etgan. Azot oksidlarining eng ko'p chiqishi 1-qozonxonadan hamda oltingugurt olish sexi 2-zonasidan atrof-muhitga chiqarilishi ma'lum bo'ldi. Ushbu sexlarda 2015–2019-yillarda 80-135 mg/m³ atrofida azot oksidlari tevarak-atrofga chiqarilgan (3-rasm). Uglerod oksidlarining eng ko'p chiqarilishi oltingugurt olish sexi 2-zonasida qayd etilgan (3-rasm). Ya'ni ushbu sexdan atrof-muhitga yiliga

66,78-77,56 mg/m³ uglerod oksidlari chiqarilgan. Shuningdek, majmuadan yiliga 5054,62 mg/m³ gacha oltingugurt oksidlari (2018-yilda oltingugurt olish sexi 2-zonasi) chiqarilgan.



3-rasm. Majmua faoliyati natijasida NO_x, O, SO₂ ning atrof-muhitga chiqarilishi.

Majmua sexlaridan chiqayotgan chiqindilarning har yili turli me'yorda chiqishini majmuaga uzatilayotgan gazning tarkibi turli-tumanligi bilan izohlash mumkin. Majmuada 2 ta oltingugurt olish sexi faoliyat olib boradi. 1-oltingugurt sexi gazni oltingugurtdan tozalaydi 2-sexda esa oltingugurt ajratilgandan so'ng qolgan gaz yoqib yuboriladi. Gaz tarkibida qolgan oltingugurt gaz yonganda atmosferaga tarqaladi.

Majmua faoliyati natijasida ifloslangan chiqindi oqova suvlarning miqdori ham oshib bormoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, majmuadan chiqayotgan xo'jalik maishiy oqova suvlar miqdori biroz kamaygan bo'lsada, boshqa turdagi oqova suvlar miqdori oshgan. Masalan, tarkibida neft qoldiqlari bo'lgan oqova suvlar miqdori 233789 m³ dan 273325 m³ ga, kimyoviy ifloslangan suvlar 50306 m³ dan 50709 m³ ga, minerallashtirilgan suvlar esa 1415354 m³ dan 1538365 m³ ga oshgan. Shuning uchun ham kelajakda ifloslangan suv miqdorini kamaytirish, ularni ishlab chiqarishda qayta ishlatish choralarini ko'rish lozim.

Sho'rtan gaz-kimyoy majmuasi ekotizimida och tusli bo'z tuproqlar tarqalgan va mexanik tarkibi jihatidan, asosan, yengil qumoq mexanik tarkibli tuproqlar jumlasiga kiradi.

Tuproqning ustki qatlamida gumus miqdori 0,6-0,7 foiz bo'lib, ba'zi joylarda 1,0-1,1 foizni tashkil etadi. Chimli qatlamdan pastki qatlamda chirindining miqdori keskin kamayib ketadi. Ustki qatlamdagi yalpi azot miqdori 0,08 – 0,10 % bo'lsa, yalpi fosfor 0,07-0,11%, yalpi kaliy esa 2,0% dan oshadi. Gipsning miqdori kam bo'lib, 11% dan oshmaydi. Tuproqning singdirish sig'imi uncha katta emas.


Singdirish sig'iminining yig'indisi 5-8 mg/ekv ni tashkil etadi. Shundan 77-90 % kalsiy ulushiga to'g'ri keladi.

Majmua chiqindilarining atrof-muhitga tarqalishi, tuproq hajm massaning oshishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, g'ovaklikka ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ya'ni majmuadan uzoqlashgan sari tuproqning g'ovakligi oshib bordi hamda o'rganilgan tuproqlarda uning ko'rsatkichi 44,3-51,2% ni tashkil etdi.

Qashqadaryo vohasining G'uzor ekotizimidagi o'simliklar qoplamini asosan efemerlar (qisqa muddatli vegetatsiyaga ega bo'lgan bir yillik o'simliklar), efemeroidlar (qisqa muddatli vegetatsiyaga ega bo'lgan, biroq ildizi orqali qayta rivojlanadigan ko'p yillik o'simliklar), kserofitlar (qurg'oqchilikka bardosh beradigan cho'l o'simliklari), galofitlar (sho'rlangan yerlarda va sho'rxoklarda o'sadigan sho'rsevar o'simliklar) va psammofit (qumlarda o'sadigan o'simliklar) tashkil etadi.

Dissertatsiyaning **“Sho'rtan gaz-kimyoy majmuasi ta'sir doirasidagi och tusli bo'z tuproqlarning chiqindilar bilan ifloslanishi”** deb nomlangan uchinchi bobida majmua faoliyati natijasida chiqarilgan chiqindilarning ekotizimdagi och tusli bo'z tuproqlar tarkibidagi oltingugurt va og'ir metallar miqdoriga, tabiiy ravishda o'sayotgan ba'zi yovvoyi o'simliklardagi og'ir metallar miqdoriga, tuproq mikrobiologik faolligiga ta'siri bayon etilgan. Vujudga kelgan ekologik muammolarning oldini olish hamda ekologik vaziyatni yaxshilash borasida o'tkazilgan tajribalar keltirilgan.

Olingan ma'lumotlarning ko'rsatishicha, majmua faoliyati natijasida atrof muhitga chiqarilgan chiqindilar o'rganilgan tuproqlar tarkibidagi oltingugurt miqdoriga o'ziga xos ta'sir ko'rsatgan. Ya'ni majmua hududida tarqalgan och tusli bo'z tuproqlarda oltingugurtning yalpi miqdori 1,64 % ni tashkil etgan bo'lsa, majmuadan 100 m masofada sharqiy yo'nalishda 1,65 %, g'arbiy va janubiy yo'nalishlarda 1,64% ni, shimol tomonda esa 1,63 % ni tashkil etdi (4-rasm).



4-rasm. Sho'rtan gaz-kimyoy majmuasi atrofidagi tuproqlarda oltingugurt miqdori (2017–2020-yil).

Majmuadan 200 m uzoqlikdan so'ng barcha yo'nalishlar bo'ylab chiqindilar ta'sirida oltingugurt miqdori asta-sekinlik bilan oshib borishi qayd etildi. Majmuadan 200 metr masofada sharq yo'nalishida uning yalpi miqdori 1,64 foiz bo'lgan bo'lsa, 300 metr masofada ushbu yo'nalishda mos ravishda 1,66 foizni,


500 metr masofada esa yuqoridagilarga mos ravishda 1,66 foiz, 750 metr masofada esa 1,69 foiz bo'ldi. Xuddi sharq yo'nalishida qayd etilganidek boshqa yo'nalishlarda ham yalpi oltingugurt miqdori asta-sekinlik bilan ortib bordi. Ushbu ekotizimdagi och tusli bo'z tuproqlar sharoitida oltingugurt miqdorining oshib borishi bevosita majmua faoliyati natijasida atrof-muhitga chiqarilgan turli xil oltingugurtli birikmalarga bog'liq.

Majmua hududidan tashqarida oltingugurt miqdori 1500-2000 m uzoqlikkacha bo'lgan masofalargacha ortib bordi. Ekotizimda tarqalgan och tusli bo'z tuproqlar sharoitida yalpi oltingugurtning eng ko'p miqdorlari asosan majmuadan janubi-sharqiy yo'nalishda, 1750 m uzoqlikda 1,98 %, janub yo'nalishida huddi shunday masofada 1,96% ni tashkil etdi. Majmuadan 2000 metr uzoqlikdan boshlab barcha yo'nalishlarda oltingugurt miqdori kamayib bordi. 5000 metrdan boshlab esa fondagi miqdoriga yaqinlashdi. Ba'zi yo'nalishlarda tenglashdi. Fon sifatida olingan 20000 metr uzoqlikda olingan hududda esa umumiy oltingugurtning fondagi miqdori 0,19 % ni tashkil etdi.


Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi atrofida tarqalgan och tusli bo'z tuproqlar tarkibida mis elementining eng ko'p miqdori majmuaning janub yo'nalishida 500 metr uzoqlikda (55 mg/kg), yalpi ruxning maksimal miqdori 98 mg/kg majmuadan 1000 m uzoqlikda, janub yo'nalishida va 1250 m uzoqlikda janubi-sharq yo'nalishida, yalpi qo'rg'oshinning eng ko'p miqdorlari majmuaning janub yo'nalishida, 1000 m uzoqlikda (1 kg tuproqda 232 mg), janubi-g'arbiy yo'nalishida 1250 m uzoqlikda (1 kg tuproqda 240 mg) va janubi-sharq yo'nalishida 1500 m uzoqlikda (1 kg tuproqda 276 mg) aniqlandi. Keltirilgan ushbu ko'rsatkichlar qo'rg'oshinning REM dan 8-9 marta, fon ko'rsatkichidan esa 12-13 marta va undan ko'proq ekanligini ko'rsatadi. Yalpi nikelning eng ko'p miqdorlari 1 kg tuproqda 280 mg (janub yo'nalishida 1500 metr masofada) va 298 mg (janubi-sharqiy yo'nalishi 2100 metr masofada) qayd yetildi. Ushbu miqdorlar yalpi nikelning fondagi miqdori (17 mg/kg) va REM dan (85 mg/kg) besh barobar ko'pdir. Majmuadan janubi-sharq yo'nalishida 2500-3000 metr masofalardagi och tusli bo'z tuproqlarda yalpi nikelning REM dan ko'proq bo'lgan miqdorlari aniqlandi (5-rasm).

Majmua atrofidagi tuproqlarda harakatchan misning eng ko'p miqdori majmuadan 750 m janub yo'nalishida kuzatildi – 4,0 mg/kg, harakatchan ruxning eng ko'p miqdori majmua janubiy yo'nalishda 750 m va janubi-sharqiy yo'nalishida 1000 m masofalarda aniqlandi (mos ravishda 1 kg tuproqda 27,2 va 27,1 mg). Ya'ni ushbu ikki element miqdori ularning REM ga ancha yaqin bo'lib, ushbu elementlar bilan kamroq ifloslangan.

Majmua atrofidagi tuproqlar harakatchan shakldagi qo'rg'oshin va nikel elementlari bilan ifloslangan. Ya'ni harakatchan qo'rg'oshinning eng ko'p miqdori 1 kg tuproqda 55,2 mg ni (majmuaning janub tomonida, 850 m uzoqlikda), harakatchan nikelning maksimal miqdori esa janubi-sharqiy yo'nalishida 53,1 mg (1500 m da) kuzatildi. Ifloslanish, asosan, majmua atrofida, 2000 metr radiusda hamda janub, janubi-g'arbiy va janubi-sharqiy yo'nalishlarida uchraydi.



a)



b)


5-rasm. Sho‘rtan gaz-kimyoy majmuasi atrofidagi och tusli bo‘z tuproqlarda og‘ir metallarning tarqalish karta-sxemasi: a) yalpi, b) harakatchan.

Tadqiqotda majmua atrofida tabiiy ravishda o‘sayotgan o‘simliklar tarkibida og‘ir metallar miqdori o‘rganildi. Bunda ushbu landshaftda nisbatan ko‘proq tarqalgan oqqo‘ray, yaltirbosh, shuvoq (*Artemisia herba alba*), shirinmiya (*Glycyrrhiza glabra-L.*) kabi o‘simliklar tanlandi va ular tarkibidagi qo‘rg‘oshin hamda nikel elementlari miqdori aniqlandi.


O‘rganilgan o‘simliklar tarkibida nikel elementining eng ko‘p miqdori shuvoq o‘simligida 23,7 mg/kg, shirinmiyada-12,2 mg/kg (mazkur o‘simliklarda majmuaning janub yo‘nalishida 1000 metr uzoqlikda), oqqo‘rayda esa 10,2 mg/kg (janubda 750 metr) va yaltirboshda-9,8 mg/kg (janubi-sharqiy yo‘nalishida 1000 metr) aniqlandi. Ushbu o‘simliklarda qo‘rg‘oshin miqdori shuvoqda 8,2 mg/kg (janub 750 metr), shirinmiyada-7,4 mg/kg, oqqo‘rayda-6,8 mg/kg va yaltirboshda-7,7 mg/kg (uchala o‘simlikda ham janub yo‘nalishida 1000 metr masofada) qayd etildi.

O‘rganilgan o‘simliklarda og‘ir metallarning eng ko‘p miqdori majmuadan janub yo‘nalishida kuzatilishining asosiy sababi majmua faoliyati natijasida chiqarilgan turli zararli birikmalarning shamol ta‘sirida shu tomonga tarqalishidir. O‘rganilgan o‘simliklar tarkibida og‘ir metallar miqdori bo‘yicha keyingi o‘rinlarni sharq va g‘arb yo‘nalishlari egalladi. Shimol yo‘nalishida esa og‘ir metallar miqdori eng kam bo‘ldi. Barcha yo‘nalishlarda o‘simliklar tarkibidagi og‘ir metallar miqdori 1000-1500 metrgacha bo‘lgan masofalarda asta-sekin oshib bordi. 1000-1500 metrdan to 10000 metr uzoqlikkacha bo‘lgan masofada esa og‘ir metallar miqdori asta-sekin kamayib bordi.

Sho‘rtan gaz-kimyoy majmuasi faoliyati natijasida chiqarilgan turli xil chiqindilar hududda tarqalgan och tusli bo‘z tuproqlar tarkibidagi mikroorganizmlar miqdoriga ham ta‘sir ko‘rsatdi. Mikroorganizmlarni aniqlash uchun tuproq namunalari bahorda (20-aprel) va kuzda (20-oktabr) olindi.



a)



b)

6-rasm. Majmua atrofida tarqalgan tabiiy o'simliklar tarkibida a) nikel va b) qo'rg'oshin elementi miqdori, mg/kg.

Natijalarga ko'ra, majmua hududidan bahorda olingan tuproqlarda bakteriyalar miqdori 1 mln. 200 mingta, kuzda esa 1 mln. 320 mingtani tashkil etdi. Majmuadan 1000 metr janub tomonda olingan namunalarda bakteriyalar miqdori 1 gramm tuproqda bahorda 1 mln. 352 mingta, kuzda esa 1 mln. 520 mingta bo'ldi. Majmuadan uzoqlashgan sari, bakteriyalar miqdori majmua chiqindilari bilan ifloslanishning kamayishi bilan ortib bordi (3-jadval). Majmua atrofidagi tuproqlarda aktinomitsetlar va zamburug'lar miqdori ham xuddi bakteriyalar singari majmuadan uzoqlashgan sayin, ifloslanishning kamayishi natijasida ortib bordi.

1-jadval

Majmua faoliyatining tuproqdagi mikroorganizmlar miqdoriga ta'siri, ming/g

T/r	Majmuadan uzoqligi, m	Bakteriyalar		Aktinomitsetlar		Zamburug'lar	
		bahorda	kuzda	bahorda	kuzda	bahorda	kuzda
1	Majmua hududida	1200	1320	2200	2310	42,2	44
2	1000	1352	1520	2800	2910	44,5	47,2
3	2000	1418	1580	2912	3102	46,8	47,7
4	3000	1516	1608	2998	3189	48,2	49,8
5	4000	1934	2015	3615	3721	76,8	79,7
6	5000	2995	3110	4710	4810	92,8	96,2
7	20000 (fon)	3110	3200	4820	4920	117,0	124,2

Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi faoliyati natijasida atrof-muhitga chiqarilgan chiqindilar natijasida turli zararli birikmalar va og'ir metallarning tuproqda to'planishi ushbu hududda tarqalgan och tusli bo'z tuproqlar unumdorligi va ekologik holatiga salbiy ta'sir qiladi. Majmua chiqindilari ta'siri tuproq tarkibidagi

gumus va o'simliklar uchun zarur bo'lgan oziq elementlari, Ya'ni nitrat va ammoniy shakldagi azot hamda harakatchan fosfor miqdori sezilarli kamayishi kuzatiladi. Majmua chiqindilari tuproqda almashinuvchan kaliy miqdoriga unchalik sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

